



MEHRIBONLIK UYI TARBIYALANUVCHILARINING SHAXSLARARO MUNOSABATLARI PSIXOLOGIK TAHLILI

Xudayberdiyeva Nilufar Xasan qizi

A.P.Xlebuskina nomidagi

22-sonli Mehribonlik uyi psixologi

nilufar-muradova@mail.ru

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15303179>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 20-Aprel 2025 yil

Ma'qullandi: 25- Aprel 2025 yil

Nashr qilindi: 29-Aprel 2025 yil

KEYWORDS

Mehribonlik uyi, shaxslararo munosabatlar, onalik deprivatsiyasi, agressivlik, "Men" konsepsiyasi, muloqot, murakkab vaziyatlar, emotsional munosabatlar.

ABSTRACT

Mamlakatimizda sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalash, ularni ma'naviy-ruhiy jihatdan yetuk, zehni o'tkir, zukko va bilimdon qilib tabiyalash eng dolzarb vazifalaridan biridir. Mehribonlik uyida tarbiyalanayotgan bola oilada kamol topayotgan boladan kam bo'lmasdan, aksincha, har tomonlama rivojlangan, zehni o'tkir bo'lishi lozim. Shu sababli, mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarining psixologik rivojlanishi, jumladan, ularning shaxslararo munosabatning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish bugungi kun psixologiyasining dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Ammo shaxs shakllanishida muhim o'rin egallagan shaxslararo munosabatlar mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilari misolida izchil ravishda o'rganilmagan. Ana shu nuqtai nazardan yondashdigan bo'lsak, mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarida shaxslararo munosabatning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish ham bu mavzuning dolzarbligidan dalolatdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yetim bolalar va ota-onasining qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning yangi tizimini joriy etish chora-tadbirlar to'g'risida" 2021 yil 9 avgustdagi PQ-5216-son qaroridan maqsad yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarning huquq va erkinliklarini ro'yobga chiqarish, ijtimoiy himoyasini kuchaytirish, ularni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini yanada takomillashtirish, shuningdek, yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash masalalari bo'yicha keng jamoatchilik bilan o'tkazilgan muhokama natijalari ijrosini ta'minlash hisoblanadi. **2021 yil 1 sentyabrdan boshlab o'quv-tarbiya muassasalarini tamomlagan yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni ishga joylashtirish va ularning bandligini ta'minlashning quyidagi tartibi joriy etildi.**

Xalqaro darajada bolalarni parvarish qilish sohasi katta muassasalar o'rniga oilaviy va jamoatchilik asosida bir qator xizmatlar ko'rsatish sari o'zgarmoqda. Mamlakatimizda sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalash, ularni ma'naviy-ruhiy jihatdan yetuk, zehni o'tkir, zukko va bilimdon qilib tabiyalash eng dolzarb vazifalaridan biridir. Mehribonlik uyida

tarbiyalanayotgan bola oilada kamol topayotgan boladan kam bo'lmasdan, aksincha, har tomonlama rivojlangan, zehni o'tkir bo'lishi lozim. Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi olib borgan o'rganishlarga ko'ra, Mehribonlik uyida tarbiyalanib chiqqan yoshlarni asosan quyidagi muammolar qiynaydi:

- nosog'lom oilaviy muhit (jumladan, oiladagi zo'ravonlik holatlari);
- oila va maktab tomonidan rad etilish holati, ayniqsa oila va maktab bolaning muassasaga tushishiga sabab bo'lgan bo'lsa;
- bola hayotida qo'llab-quvvatlovchi, tushunadigan va himoya qiladigan oila a'zosi, qarindoshning yetishmasligi, shaxslararo munosabatlardagi nizolar;
- doimiy uy-joy yo'qligi, sharoit og'irligi va daromad yetishmovchiligi;
- o'qishni davom ettirish yoki ish topish uchun imkoniyatlarning yetishmasligi;
- mehnat yoki jinsiy ekspluatatsiya xavfi, odam savdosi qurboniga aylanish xavfining borligi;
- spirtli ichimliklarga, giyohvand va psixotrop moddalarga ruju qo'yish xavfi;
- qizlarda istalmagan erta tug'uruq xavfi;
- huquqbuzarlik, jinoyat sodir etish va oqibatda ozodlikdan mahrum bo'lish xavfi.

Bolalarning Mehribonlik uylariga tushishiga oilalardagi nosog'lom muhit, hal qilinmagan ijtimoiy muammolar, ta'lim muassasalarining barcha bolalar ehtiyojini qondira olmasligi, mahalla atrofidagi o'spirin guruhlarining ta'siri sabab bo'lmoqda. Aslida, mehribonlik uyida juda ham kam sonli bolalar bo'lishi kerak. Mamlakatimizda bolani yetim qolsa, qayerga jo'natish bo'yicha 5ta yo'nalish mavjud. Ulardan biri – vasiylik va homiylik. Agar bola 14 yoshgacha bo'lsa, uni qarindoshi yoki qo'shnisiga homiylikka beriladi; agar 14 yoshdan yuqori bo'lsa, vasiylikka beriladi.

Ushbu jarayonda tarbiyalanuvchi yangi ijtimoiy muhit, oila a'zolarga moslashish jarayonida paydo bo'ladigan shaxslararo munosabatlar muammolari kelib chiqadi. Shu sababli, mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarining psixologik rivojlanishi, jumladan, ularning shaxslararo munosabatning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish bugungi kun psixologiyasining dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Ammo shaxs shakllanishida muhim o'rin egallagan shaxslararo munosabatlar mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilari misolida izchil ravishda o'rganilmagan. Ana shu nuqtai nazardan yondashadigan bo'lsak, mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarida shaxslararo munosabatning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish ham bu mavzuning dolzarbligidan dalolatdir.

Olib borilgan kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, Mehribonlik uylarida yashayotgan bolalarning katta qismi ota-onalari va yaqin qarindoshlari mavjud bo'lgan bolalardir. Jamiyatimizning ba'zi a'zolarida afsuski, farzandidan vos kechib, bolani davlat qaramog'iga topshirish huquqiga ega va farzandi uchun javobgarlik va ma'suliyatni davlat o'z zimmasiga olish shart degan qarashlar mavjud.

Biologik omillarning buzilishi esa ota-onalarning ichkilikbozlik, fohishalik, giyohvandlik, jinoyatchik va jamiyat normaliga zid tarzda hayot kechirishlari bolalar shaxsini individual-psixologik xususiyatlarini izdan chiqishiga sabab bo'lmoqda. Ta'lim-tarbiya o'rgatish, yangicha ko'nikma va malakalar shakllantirish bunday bolalarga yuqori darajadagi pedagogik mahorat talab qiladi. Butun dunyo miqiyosida psixolog va pedagoglar tomonidan ushbu masala yuzasidan ishlar olib borishiga qaramasdan, ilmiy ishlar turli nazariya asosida olib borilganligi, erishilgan natijalarni bir biri bilan taqqoslash imkoniyatidagi qiyinchiliklar,

qiyosiy tahlil natijalari ma'lum bir ijtimoiy madaniy sharoitlarda o'tqizilganligi uchun mamlakat an'analari asosida bolalarga m toifasi, kattaligi, mintaqa, ufr-odatlarga mos kelmasligi sababli, bugungi kunga qadar ko'zlangan natijalarga erishilganligi yo'q.

Yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar oilada tarbiya topayotgan bolalardan keskin farq qilishi hech kimga sir emas. Tarbiyalanuvchilar xarakter xususiyatlariga xos bo'lgan shaxslararo munosabatlarda tez-tez uchraydigan nizolar, agressivlikni keltirib chiqaruvchi omillardan biri bu onalik deprivatsiyasi, ota-ona tarbiyasiga muhtojlikdir.

Angliyalik psixolog R.Bernis onalik deprivatsiyasi haqida quyidagicha yozadi: "Men" konsepsiyasining rivojlanishi va hissiy tajavuzkorlik bolaning ota-onasiga va ota-onalik rolini bajaruvchi kishilarga nisbatan qo'polligi natijasidir. Bolada hech kimga qo'shilmalik, tushkun kayfiyat, odamovilik kuzatiladi. Bular esa salbiy "Men" konsepsiyasini keltirib chiqaradi. [1]

Agressivlikni keltirib chiqaradigan yana bir sabab: kelisha olmaslik, qarama-qarshilik, aniq bir to'xtamga kela olmaslik kabilar. Bu esa keyinchalik tarbiyalanuvchilarda shaxslararo munosabatlarda paydo bo'ladigan doimiy konfliktlarga olib boradi.

Psixologlar V.S.Rotenberg va S.M.Bondarenko "Qidiruv faolligi" nomli konsepsiyasiga ko'ra agar qidiruv faolligini yo'nalishini o'zgartirilsa agressivlikni yo'qotish mumkin bo'ladi. [2]

Nemis psixoterapevti G.Ammon fikricha har bir individ agressivlik bilan tug'ilishi, rivojlanish natijasida shaxsning yaratuvchanlik agressiyasi asta-sekinlik ijodiy garmonik rivojlanishga o'tadi. [3]

N.N.Tolstix tomonidan o'tqizilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, shaxslararo munosabatlardagi kelajakka ishonch, o'ziga munosabat, xayotiy rejalar, vaqtinchalik imkoniyat yaratish, o'smirning o'sishi ijtimoiy vaziyatlar ta'siri natijasida yuzaga keladi. O'smirning rivojlanishi, kamolotga intilishi bolalar psixologiyasidagi asosiy muammo hisoblanadi. Ushbu g'oya L.S.Vigotskiy tomonidan kiritilgan va keyinchalik L.I.Bojovich tomonidan shakllantirilgan. Har bir yosh bosqichida rivojlanishning ichki jarayoni yig'indisi va tashqi shart-sharoitlar, psixik rivojlanish dinamikasini yaratadi va yangi sifatli psixikani tashkil qiladi. [4]

A.V.Prixojan, N.N.Tolstixlarning fikricha mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilari uchun kundalik hayot, axloqiy me'yorlar, o'qish rejimiga itoat etish bilan bog'liq bo'lgan dominantly istak karakterli hisoblanadi. Oddiy oilada tarbiyalanayotgan bolalar esa kundalik hayot tashvishlari bilan birga ko'pgina umuminsoniy muammolar ham qiziqtiradi. [5]

Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilaridagi bir tomonlama faoliyat motivining kambag'alligi nafaqat hayotiy tajribaning yetishmasligi bilan, balki kattalar bilan munosabat karakteriga ham bog'liq bo'ladi. Maktabgacha va kichik maktab yosh davridagi bolalar psixikasini rivojlanishida va o'sishida kattalarning roli beqiyosdir. Kattalar bilan munosabatda bo'lish ehtiyoji mehribonlik uyi kabi muassasalarda kuchliroq seziladi va bunday munosabatlar alohida hususiyat kasb etadi, bu esa o'z navbatida tarbiyalanuvchilarning tengdoshlari bilan munosabatlarida ko'rinadi.

Shaxslararo munosabatlar mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarining kattalar va tengdoshlari bilan munosabatida o'ziga hos ko'rinishga ega bo'ladi. Bu ayniqsa bahsli vaziyatlarda, ta'qiqlash, qiziqishlar to'qnashuvida, katta yoshdagilar tanbehida, tengdoshlari tomonidan ayblashda yaqqol ko'rinadi. Ushbu vaziyatlarda tarbiyalanuvchilarning agressivligi

boshqalarni ayblash, o'z aybini bo'yniga olmaslik, muammoli vaziyatlardan chiqib keta olmaslik kabi xususiyatlarda namoyon bo'ladi.

Mehribonlik uyidagi tarbiyalanuvchilar tor doiradagi guruhlar bilan munosabatda bo'ladi. Ularda boshqa guruh yoki o'zi istagan jamoa bilan muloqotda bo'lish cheklanganligi bilan birga o'zi tarbiyalanayotgan muhitdan jamoadan ham chiqib keta olmaydi.

Kattalar bilan munosabatga kirishishga intilish tarbiyalanuvchilarda kattalarga nisbatan tajavuzkorlikni keltirib chiqaradi. Rotenberg fikricha, munosabatga bo'lgan ehtiyojni kattalardan ta'minlovchi sifatida talab qilishi o'zining munosabat masalasining yechimini boshqalardan kutish, o'zi mustaqil bajarishni bo'yniga olmaslikka olib keladi.

Kuzatishlar natijasida shu narsa ma'lumki mehribonlik uyidagi tarbiyalanuvchilar kattalarga yoki tarbiyachilarga yoqish va ijobiy munosabatda bo'lish uchun ichki tartib-intizomga qat'iy bo'ysunishga harakat qilishadi.

A.Nekrasov mehribonlik uyida olib borgan tadqiqotlarida tarbiyalanuvchilarning o'z-o'zini anglashini o'rganib chiqib oilada tarbiyalanayotga o'smirlar bilan tahlil qilib, quyidagicha xulosa qiladi: oilada tarbiya topayotgan o'smirlarda mehribonlik uylarida tarbiyalanayotgan bolalarga nisbatan o'z-o'zini anglash ishonchliroq va orzuga intilish kuchli bo'ladi, shaxslararo munosabati, irodaviy sifatleri, o'zini-o'zi tarbiyalashi, maqsadga erishishda ichki va tashqi shart-sharoitlarga baho berishlari kabilar bilan farqlanadi.[6]

Mehribonlik uyining kichik yosh davridagi tarbiyalanuvchilarda qiziquvchanlik va munosabat xususiyatlarini aniqlash yuzasidan psixolog T.M.Zemlyanuxina bir qator ishlarni amalga oshirgan, shuningdek mehribonlik uyida tarbiyalanuvchilarning shaxslararo munosabatlari, ruhiy rivojlanishi umumiy tarbiya maskanlaridagi bolalrdan ortda qolgan degan fikrni bildirgan. Shaxsning barcha maqsadlarini, istiqbolini ifodalovchi tarbiya maqsadi haqida shaxslararo munosabatlarini quyidagicha ta'riflaydi: [7]

kimki yordamga muhtoj bo'lsa, unga yordam berish;
- boshqalarga nisbatan hurmatda bo'lish;
- boshqalar quvonchiga, g'amiga sezgirlik bilan munosabatda bo'lish, boshqalar qayg'usiga sherik bo'lish;
- insoniy qadr-qimmatga ozor bermaslik;
- odamlar orasidagi insonparvarlik munosabatlariga zid ko'rinishlarga qarshi murosasiz bo'lish kerak.

Oilasidagi o'z yaqinlaridan ajralib qolish oqibatida bolalarda salbiy hissiyotlarning rivojlanib borish omillarini o'rganib chiqqan olim Z.Freyd o'z ilmiy izlanishlarida bolaning onasidan ajratib tarbiyalash jarayoni bolaning ruhiy holatini izdan chiqishiga sabab bo'lishini ko'rsatib o'tadi. Onasini eslay oladigan bolalar o'z onasini tez-tez qo'msab turadi, uzoq vaqtgacha uchratmaslik esa salbiy hissiyotlarning namoyon bo'lib borishiga sabab bo'ladi. [8]

Amerikalik psixolog O.A.Gulevich mehribonlik uyidagi intizomni saqlash uchun qo'llaniladigan jazolashni qat'iy qoralaydi. Tarbiyalanuvchini guruh oldida jazolash tarbiyachiga nisbatan hurmatsizlik va nafrat hissini paydo qiladi. Bu esa keyinchalik kattalar bilan munosabatlarda salbiy ta'sirini o'tqizadi.

Psixolog olim I.P.Yevgeniy qarovchisini yo'qotgan bolalar muammosi ustida, ularning ruhiy rivojlanish yo'llari haqida fikr yuritib ilmiy tadqiqotlar olib borgan. [9]

V.M.Myashichev o'z konsepsiyasini «Shaxsning munosabatlar psixologiyasi» deb nomlaydi. Muomala va shaxsning ruhiy tuzulishi to'g'risida muallif shaxs ruhiyati yaxlit, uning

vujudga kelishi esa sabab naitijasi ekanligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, shaxs dialogli muomalaning malakasi va boshqalar bilan munosabatning mahsuli sifatida namoyon bo'ladi. Muomala jarayonida boshqa odamlar bilan munosabatga kirishishning tashqi ahamiyatga molik bo'lgan shaxsiy tajribasi borliqqa nisbatan ichki munosabatlarni individual tanlanma xususiyatini determinatsiya qiladi. V.M.Myasishchev fikricha, bu munosabatlar qiziqish darajasini, hayajon kuchini, hohish yoki ehtiyojni tavsiflaydi va subyektlarning xulq-atvorida, xatti-harakatida, kechinmalarida namoyon bo'ladi. Shaxslararo munosabatlar muomalada turli darajadagi faollik, tanlovchanlik hamda ijobiy va salbiy tomonlari bilan aks etadi. V.M.Myasishchev muomalani muloqatga keng tarqalgan shakllarini bayon etishga va tartibga keltirishga harakat qilgan. Birinchi holat shaxslararo munosabatlarga murojaat shaklining mos tushushidir. Ikkinchi holatda muomala shakli shaxslararo munosabatlar bir-biridan keskin tafovutlanuvchi holatlar kiritiladi. [10]

Shaxsga muomalaning ta'siri shart-sharoitlari va ruhiy omillari muallif tadqiqotlarida alohida ahamiyat kasb etadi. So'zga ta'sirchanlik ko'p jihatdan shaxsning tashqi ta'sirga berilish darajasiga, qayta ishontirish darajasiga bog'liq. Moyillik shaxsning zakovatini belgilovchi barqaror hususiyati mahsuli emas, balki odamlarining o'zaro munosabatlari natijasi hisoblanadi.

V.M.Myasishchev fikricha insonning eng muhim ehtiyoji mehnatga va muomalaga nisbatan munosabatidir. Uning xususiyatlari, karakteri, mayli, qobiliyati bir tomonlama ta'sir jarayonida rivojlanibgina qolmasdan, balki tabiat, jismlar bilan ikki tomonlama o'zaro ta'sirda ham sezilarli iz qoldiradi. U bir tomondan shaxslararo uzluksiz nizolar kelib chiqishiga olib keladi, muomala subyektlari tomonidan o'zaro nizolarni mustaqil ravishda tuzatishning imkoniyatini to'sib qo'yadi. V.M.Myasishchev «Muomalaning uch tarkibli tuzilishi» nazariyasida boshqalar odamlar bilan «Muomala maromlari repertuari» besamarligining determinatori tashqi muhit ta'siriga nisbatan noadekvat tuzilmalar vujudga kelishidir.

B.G.Ananyev psixologiya fanining muomala kategoriyasiga bag'ishlangan o'zining dastlabki ishlarida tarbiyachilik imkoniyati, o'quvchilarning aqliy va axloqiy rivojlanishida muhim omil yoki manba ekanligi mukammal ravishda tahlil qilingan. Muallifning mulohazalariga qaraganda, muomala faoliyatning o'ziga xos turi sifatida taqdim etilishida uning maxsus va yetakchi sifati inson o'z munosabatlarni o'zgaralar orasida amalga oshirishida ifodalanadi.

«Inson bilishning predmeti sifatida» asaridan parcha keltiradi: «Inson xulqi ijtimoiy faoliyat ko'rinishlarining nafaqat murakkab majmuasi, muhitining moddiylashuvi sifatida namoyon bo'ladi, balki u muomala shaklida har xil ijtimoiy tuzilmalarda odamlarning o'zaro amaliy ta'siri tarzida ham gavdalanadi». B.G.Ananyev muomalaning verbal va noverbal vositalaridan tashqari ichki tomonini ham turlarga ajratadi. Uning fikricha, muomala qanday kechishidan qat'iy nazar shaxslararo munosabatlarda, inson o'z harakatini o'zi boshqarishi bilan bir paytda, uning ichki dunyosi tashkillashuvi o'rtasida o'zaro aloqa hukm suradi. U shaxsning interindividual va intraindividual tuzilishi o'rtasidagi aloqalarni maxsus tadqiqot predmeti qilib tanlaydi. Shaxsning jamiyat bilan, xususan, ijtimoiy guruhlar va institutlar bilan aloqalari hilma-hilligi, uning intraindividual tuzilishini, shaxsiylik hususiyatlari takomillashuvini va ichki dunyosini aniqlaydi.

B.G.Ananyev ushbu holatni biroz oydinlashtirib, insonning individual rivojlanishi va tarbiyasi o'rtasidagi o'zaro aloqani ikki turga bo'ladi. Birinchi tur tarbiya va rivojlanishning

turdosh qismlari hamda tomonlari orasida gomogen usul munosabatlarida aks etadi, ikkinchi hil munosabatlar yoki geterogen bog'liqlik aqliy tarbiyaning jismoniy tarbiyaga, jismoniy tarbiyaning aqliyga, ahloqiy tarbiyaning jismoniy tarbiyaga ta'siri orqali gavdalanadi. Bu muhim kashfiyot muomalaning funksional imkoniyatlarini tushuntirishdagina muhim ahamiyat kasb etib qolmasdan, balki insonning hayoti va faoliyati, psixofiziologik sog'lomligi determinatsiyasi tabiatini tushunishga ham alohida ahamiyatga ega.

B.G.Ananyev muomalaning sifat va miqdoriy optimumini qidirish borasida omaaviy ahborot vositalari va bevosita kundalik muloqot munosabatlarining insonga ta'sir darajasini aniqlashga intiladi.

Y.V.Tsukanovaning taqdiqoti ijtimoiy, muhandislik, kosmik psixologiya sohalarida to'plangan faktik materiall mohiyatida ifodalangan inson faoliyatiga stressogen ta'sir omillaridan biri bo'lmish vaqt taqchilligiga bag'ishlangan. Shaxslararo ta'sir o'tkazishning psixologik mexanizmlariga oid izlanishlar maullifga vaqt taqchilligi omili bilan shartlangan ishbilarmonlik muloqotida va faoliyatida muhim o'zgarishlarni topish imkonini bergan. [11]

Y.V.Sukanovaga ko'ra, optimal vazuyatlarda shaxslarning kommunikativ kreativligi hamkorlikda qarorga kelish jarayoni anglamasligi, ya'ni kelishmovchilik paydo bo'lganida yuzaga kelishi mumkin.

A.V.Petrovskiy shaxslararo munosabatlar jamoadagi faoliyatdan kelib chiqishini o'rganib, ta'lim jarayonida o'qituvchining o'quvchilar bilan hamkorligini tashkil qilish faqat ularning muloqatga, muomalaga nisbatan ehtiyojini qondirish vositasi emas, balki o'quv materialini o'zlashtirishning ham vositasi ekanligini ta'kidlagan edi. [12]

Bu masalaga A.A.Bodolyov o'qituvchi bilan o'quvchining munosabati ularning samarali hamkorligini vujudga keltirish zarur deb hisoblaydi. Buning uchun o'qituvchilar o'quvchilarning shaxs sifatidagi hususiyatlarini, maqsad va ehtiyojlarni hisobga olish shartdir. [13]

Shaxslararo munosabatlarda muomalaning inson psixik dunyosiga ta'siri masalalarini psixologlardan L.S.Vigotskiy, S.L.Runinshteyn, A.N.Leontyev, B.G.Ananyev, A.V.Zaporojch, A.A.Bodalev, B.F.Lomov, A.A.Leontyev, M.I.Lisina tadqiqot olib borganlar.

L.S.Vigotskiy bola shaxsji ruhiy dunyosi rivoji va taraqqiyotida muomalaning ahamiyati borasida "Bola shaxsiy faolligini namoyon bo'lishning asosiy yo'li kattalar bilan muomalasi hisoblanadi. Uning tashqi olamga munosabati hamisha boshqa odam orqali munosabat bildirishidir" deb ta'kidlaydi.

L.S.Vigotskiy fikricha, ontogenezda genetik jihatdan birlamchi o'zaro ta'sir bahs, dialogdir; ikkilamchi esa individning ongi, ruhiy jarayonlarning individualligidir. "Biz madaniy rivojlanishning umumiy gegenik qonunini mana shunday shaklda ifodalashimiz mumkin: bolaning madaniy muhitda o'sishida har qanday funksiya baholanishi uchun ikki marta, ikki rejada paydo bo'adi, avvalo ijtimoiy, keyin psixologik, shuningdek, shaxslararo interpsixologik kategoriya sifatida so'ng bola ichki dunyosida intro-psixologik kategoriya tariqasida".

L.S.Vigotskiy shaxslararo munosabatlarda asosiy qurol va vosita muomala jarayoni ekanligini uqtiradi. Uning fikricha, shaxslararo munosabatlarda avval muomala asosiy vosita, so'ng xulq-atvor turadi. Chunki inson yakka qolgan paytda ham muomala funksiyasini o'zida saqlaydi.

L.S.Vigotskiy qarashlaridan yana shu jihat ko'rinadiki, muomala interorizatsiya, ya'ni ichki nutq va ekstreorizatsiya, ya'ni tashqi nutq, muomala shakllarida namoyon bo'ladi. Bundan ko'rinadiki, muomala sababli shaxs ijtimoiylashuvi yuzaga keladi.

L.S.Vigotskiy muomala, shaxslararo munosabatlar psixologiyasiga oid fikrlari g'oyat qimmatli, chunki unda biz shaxs ijtimoiylashuvi jarayoni uchun muhim asos sifatida muomalani ko'ramiz va shaxs shakllanishida bu jarayonning qimmatli cheksiz ekanligini yanada anglaymiz. [14]

V.M.Bexterevning ishlarida shaxslararo munosabatlar muammosi, xususan, muomala mavzusi ijtimoiy-psixologik nazariya jihatidan o'rganilgan. Uning qarashlarida insonlarning o'zaro ta'sir etishlari muhim muammo sifatida talqin etiladi. V.M.Bexterev ijtimoiy hayotda muomalaning rolini ta'riflab, uning funksiyalarini hamkorlik faoliyatini amalga oshirish mexanizmi sifatida ajratib talqin qiladi. Uning fikricha, shaxsning atrofdagilari bilan muomalasi qanchalik xilma-xil va boy bo'lsa, shunchalik uning taraqqiyoti muvaffaqiyatli amalga oshadi. [15]

V.M.Bexterev muomalaning ijtimoiy roli va funksiyasini tahlil etishda uning ko'rinishlari bo'lmish taqliq va ta'sirlanish ahamiyatiga to'xtaladi. Uning fikricha, taqliq bo'lmasa, shaxs ham yuzaga kelmas edi. Chunki taqlid o'z materialini muomaladan olishini uqturadi. Ta'sirlanish esa ijtimoiy jarayonlar namoyon bo'lishining omili tariqasida qaraladi. V.M.Bexterev muomalani shartli ravishda bevosita va bilvosita turlarga ham ajratadi. Bilvosita muomala tarkibiy qismlari sifatida xat, urushish va boshqalar bo'lsa bevosita muomala turga nutqni kiritadi. Shuni ta'kidlash joizki, muomalani eksperimental o'rganish ishi V.M.Bexterev tomonidan amalga oshirilgan.

G.M.Andreyeva "Ijtimoiy psixologiya" kitobida shaxslararo munosabatlarda yuzaga keladigan 3 xil vaziyatlar va murakkab jarayonlar tuzilmasini taklif etadi.

1. Muloqotning kommunikativ tomoni, ya'ni o'zaro munosabat yoki muloqotga kirishuvchilarning o'rtasida ma'lumotlar almashinuvi jarayoni sifatida;

2. Muloqotning interaktiv tomoni, ya'ni muloqotga kirishuvchilarning xulq-atvorlariga ta'sir jarayoni sifatida;

3. Muloqotning perseptiv tomoni, ya'ni muloqotga kirishuvchilarning bir-birlarini idrok etishlari va tushunishlari bilan bog'liq jarayon sifatida. [16]

O'zaro munosabatlarda muloqotning psixologik jihatdan murakkab ekanligini B.F.Parigin shunday yozadi: "Muloqot shunchali ko'p qirrali jarayonki, unga bir vaqtning o'zida quyidagilar kiradi:

- a) Individlarning o'zaro ta'siri jarayoni;
- b) Individlarning o'rtasida axborot almashinuvi jarayoni;
- c) Bir shaxsning boshqa shaxsga munosabat jarayoni;
- d) Bir-biriga hamdardlik bildirish jarayoni;
Shaxslarning bir-birini tushunish jarayoni". [17]

e) Demak, shaxslararo munosabatlar, ya'ni muloqot jarayoni odamlar amalga oshiradigan faoliyatlar orasida eng murakkabligi va ko'p qirraliligi bilan harakterlanar ekan.

G'arbda ayniqsa AQSHda shaxslararo munosabatlarni o'rganish jarayonida ko'plab yo'nalishlar paydo bo'ldi; bulardan interaksiya va kommunikatsiya yo'nalishi tarafdorlari: simpatiya, befarqlik, yakkalanib qolish, faollik, agressiya, bo'ysunish va boshqalarni G.Zimmel,

G.Kuli keyinroq R.Beyls, D.Kartrayt, G.Xomans, S.Ash, R.Kretchfild va boshqalarning ilmiy taqdiqotlarida chuqur o'rganildi.

G.Xomans tomonidan o'zaro bog'liq kishilarning bir vaqtdagi munosabatlarining o'ziga xos tomonlari, o'zaro aloqadagi shaxslarning bir-birlarini persepsiya muammosi shaxslararo munosabatlarda ahamiyatga ega ekanligi o'rganildi. [18]

Shaxslararo munosabatlarda shaxslarning o'zaro jips, hamjamiyat yaxshashlari uchun "yoqimtoylik" katta rol o'ynashi, bu esa ularning bir-birlariga bog'lanib qolishlariga sabab bo'lishi S.Shaxter, A.Lott, T.Nyukom tomonidan aniqlandi.

Shaxslararo hamjihatlik bilan shaxslararo munosabatlardagi kommunikatsiyaning soni, takrorlanish soni, takrorlanish darajasi, faollik darajasi o'rtasida to'g'ri aloqa mavjudligi haqida AQSH lik psixolog G.Xomans tomonidan o'rganildi.

J.Moreno tomonidan o'zaro munosabatlarda simpatiya va antipatiyada shaxslarning yoqimtoyliigi, attraktivligiga sotsiometrik tadqiqotlar yordamida izlanish kuchli turtki berdi. [19]

Shaxslararo munosabatlarda o'zaro moslikni o'rganishda M.Shou bu psixologik holatni ikki turga farqlaydi.

1.Ehtiyojlardan kelib chiqqan mosliklar sheriklarning o'zaro moddiy-ma'naviy ehtiyojlarini qondirish uchun bir-birlariga moslashishga majbur bo'lishlari.

2.Hatti-harakatning o'xshashligidan kelib chiqadigan moslik.

V.B.Blokning fikricha, tasviriy san'at shaxsda har xil affektiv his-tuyg'uni yuzaga keltirish mumkin. Rus psixologi Y.G.Klimenko san'atning psixoterapiyadagi o'rniga katta ahamiyat berib: "Ohir oqibat teatrning mavjudligidan asl maqsad katarsis jarayonidir" deb ta'kidlaydi. [20]

Tasviriy san'at insonning ong osti sohasiga ta'sir etishi natijasida psixikada kuchli hissiy kechinmalar paydo bo'lishi aniqlangan, bu esa o'z navbatida suggestiv holatni boshdan kechirishga sabab bo'ladi. Tasviriy san'atning bu hususiyati esa undan har xil psixik, asab va psixosomatik kasalliklarni davolash metodi sifatida qo'llash imkonini beradi.

G.M.Breslav bola shaxsning shakllanishiga oiladagi emotsional munosabatlarni maxsus o'rgangan bo'lib, unga ko'ra, oiladagi ota-ona va farzand orasidagi va qolaversa barcha a'zolar orasidagi munosabatlarning normada kechishi ular orasidagi munosabatlarda tushunish, mehr, muhabbat tuyg'ularining mavjudligiga bog'liq ekan. Shuning uchun, u shaxsning bolalik davridan shakllanishi bu yolg'iz bolagagina emas, balki uning ota-onasiga aloqador ekanligini uqtiradi. [21]

O.Klark va J.Xanisi (1982) AQSHga kelishidan oldin mehribonlik uyida va kasalxonalarda yashagan osiyolik bolalar guruhini o'rganishgan. Ulardan ko'pchiligi jiddiy kasalliklar bilan kasallangan ota-onasini va yaqinlarini urush vaqtida yo'qotgan bolalar bo'lishgan. AQSHda ularga yaxshi qaraydigan oilalarga topshirilgan. Ikki-uch yildan so'ng bolalar intellekt va ijtimoiy yetuklik test ko'rsatkichlaridan sezilarli darajada o'sishgan.

R.Shpits va J.Boulbi mehribonlik uylari, kasalxonadagi, internatlardagi ota-ona qaramog'isiz, oilasiz tarbiyalanayotgan bolalarni kuzatib, ushbu sohada ilmiy asoslangan haqiqiy revolyutsiya qilishdi. [22]

R.Shpits birinchi bo'lib bolalar mehribonlik uylarida va kasalxonalarda qanday yashayotganlarini nafaqat ilmiy asoslab berishni, balki videotasmalarga muhirlashni o'ziga vazifa qilib belgilagan. O'sha vaqtlarda bu o'ta murakkab ish hisoblangan. [23]

R.Shpits mehribonlik uyidagi olti oylik bolalarni tahminan quyidagicha ta'riflaydi:
«..... Bolalar o'z joylarida doimiy passiv va qimirlamay beli bilan yotishardi. Ular hattoki qorni bilan yotishni eplay olishmasdi. Yuzlar bo'shshagan, ko'zlarning harakatlari zaif, yuz o'ziga xos ifodaga ega. Biroz vaqt o'tgach, harakatchanlik takrorlangan» [24]

Xulosa qilib aytganda, Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarining shaxslararo munosabatlari jarayonida o'ziga xos maxsus xususiyatlar borki, bu rivojlanishdan orqada qolish emas, balki bu maxsus xususiyat ichki tushuncha, tasavvur bir qatorda namoyon bo'lmasligi, harakatlantiruvchi fikrlash va ahloqiy javobgarlikning tashqi vaziyatlar bilan bog'liq holati bilan karakterlanadi.

Bolalar psixologiyasidagi tadqiqotlarga murojaat qilganimizda, o'z-o'zini ijobiy baholaydigan bolalar maktab davrida, tengdoshlari orasida o'z qobiliyatlarini namoyish qilib ko'plab yutuqlarga erishganini guvohi bo'ldik. Psixoterepevtik amaliyot jarayonida shuni aniqladikki, maktabda muvaffaqiyatsiz bolalar bilan ishlashda ularning bilish jarayonlarini rivojlantirish yetarli emas. Avvalo ularning o'z-o'zini to'g'ri baholashi, o'z-o'zini xurmat qilishga yo'naltirilgan maxsus mashg'ulotlar tashkil etish kerak.

Mehribonlik uylarida tarbiyalanayotgan bolalar uchun davlat tomonidan barcha shart-sharoit va qulayliklar yaratib berilgan. Lekin ana shu jajji bolakaylardan har birining tiliga chiqmasa-da, dilining tubida yotgan, ko'zlarida qalqib turgan bir o'tli armonni ham payqamaslik mumkin emas. Ya'ni ularga hammasidan muhimi ota-ona mehridir. Ular doim ota-onasini kutib, o'z uyida, tug'ishganlari bag'rida yashashni xohlaydi.

Adabiyotlar ro'yhati, Список литературы, Bibliography:

1. Р.Бернис. - Пять лет повиновения: (белая серия). – М.: Азбука 2007 г
2. Ротенберг В.С., Бондаренко С.М.-Мозг. Обучение. Здоровье. М.: Педагогика 1989 г.
3. Г.Аммон. Психосоматическая терапия. СПб.: Речь 2000. -238с
4. Прихожан А.М., Толстых Н.Н. Дети без семьи: (Детский дом: заботы и тревоги общества). – М.: Педагогика, 1990. – 160 с.]
5. Прихожан А.М., Толстых Н.Н. Дети без семьи: (Детский дом: заботы и тревоги общества).-М.: Педагогика,1990. – 160 с.
6. А.Некрасов. Путь материнской любви. ООО "ЛитРес"-2012г.
7. Землянухина, Т.М. - Особенности общения и любознательности у воспитанников закрытых детских учреждений в раннем возрасте– М.:АПН СССР, 1982 г.
8. З.Фрейд. "Я" и "Оно". М.: ИГ Лениздат, 2014 г, 256с.]
9. И.П.Евгений. Психология общения и межличностных отношений. 2-е изд. Издательский дом "Питер", 2021 г, 592.]
10. В.Н.Мясищев.Психология отношений. Изд-во Моск. психолого-социального ин-та, 2011г: 398ст
11. Е.В.Цуканова. Психологические трудности межличностного общения. Издательский дом «Вища шк.» 1985 г.]
12. А.V.Petrovski. Studies in psychology : the collective and the individual. Moscow : Progress, ©1985..]
13. Бодалев А.А. Личность и общение. — М.: Международная педагогическая академия, 1995. — 328 с.]
14. Л.С.Выготский. Психология развития человека . — М.: Эксмо, 2006 г.]

15. Бехтерев, В.М. Проблемы развития и воспитания человека : избранные психологические труды
16. Андреева Г.М. Социальная психология. Учебник для высших учебных заведений. — М.: Аспект Пресс, 2001
17. Парыгин Б. Д. Социальная психология. Проблемы методологии, истории и теории. — СПб.: ИГУП, 1999. — 592 с.]
18. Хоманс Дж. Социальное поведение как обмен // Современная зарубежная социальная психология. М.: Издательство Московского университета, 1984. С. 82-91
19. ж. Морено: Включи свою внутреннюю музыку: Музыкальная терапия и психодрама. Издательство: Когито-Центр, 2009 г.]
20. [Блок М. Апология истории, или Ремесло историка / Пер. с фр. — Таллин: Ээсти раамат, 1983. — 184 с.]
21. Бреслав Г. М. Психология эмоций. 4-е издание" 2016 Москва
22. Боулби Дж. Создание и разрушение эмоциональных связей. М., 2004
23. Шпиц Р.А., Коблинер В.Г. Первый год жизни. М., 2000
24. Шпиц Р. Психоанализ раннего детского возраста. М., 2001

